

## KORXONADA LOGISTIKANI RIVOJLANTIRISHDA YO‘L HARAKATINI TASHKIL ETISHNING ILMIIY AHAMIYATI

**Karimov Akmal Akbarovich**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti,  
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori,

**Xoliqov Xusan Uroqovich**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti magistranti

**Kirish.** Hozirda ko‘plab rivojlangan va jahon iqtisodiyotida yetakchi o‘rin tutadigan mamlakatlar tajribasi shuni so‘zsiz isbotlab beryaptiki, raqobatdoshlikka erishish va dunè bozorlariga chiqish, birinchi navbatda, iqtisodiyotni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o‘zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxonalar va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta‘minlash, faoliyat ko‘rsatadigan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

Mamlakatimizda hozirgi kunda transport-kommunikatsiyalari tizimidan samarali foydalanish uslublarining o‘zgarishi, multimodal va intermodal tashuvlarining rivojlanishi yangi infratuzilmalar obyektlarini barpo etishni, ya‘ni tashish terminallarini shakllantirishni taqozo etadi. Halqaro miqèsida ushbu multimodal tashish terminallari logistik markazlarga aylanib, halqaro tashuv va logistikaning barcha funksiyalarini o‘zlariga qamrab oladi.

Mamlakatimizda ikkita logistik markaz - Navoiy va Angren shaharlarida joylashgan. Ularda yuk va yo‘lovchilarni tashish hajmlari tobora oshib bormoqda. Navoiy viloyatida ochilgan erkin iqtisodiy zonada faoliyat ko‘rsatadigan logistik markaz orqali tashuv jarayoni rivojlanib bormoqda. Navoiy shahridagi Xalqaro intermodal logistika markazining tashkil etilishi undan nafaqat Janubiy - Sharqiy Osiè va Yevropadan o‘tadigan qit‘alararo transport-ekspeditsiya tarmog‘i sifatida foydalanish imkonini beradi. Ayni paytda u Navoiy viloyati va qo‘shni hududlarga yangi, zamonaviy yuksak texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish uchun zaruriy sharoitlar yaratilmoqda. Dunè savdosining jadal o‘shishida logistika rolining kuchayishi xalqaro masshtabda amalga oshiriladigan operatsiyalarning integrallashuvi g‘oyasini amalga oshirishga mo‘ljallangan global

logistikaga alohida e'tibor berishga olib keldi. O'zbekistonda tashqi iqtisodiy va boshqa xalqaro aloqalar, shu jumladan yuklar (yo'lovchilar)ni xalqaro tashishlar yuqori suratlar bilan rivojlanmoqda. Global logistikada transport-logistika tizimini boshqarishni modernizatsiyalash milliy iqtisodiyatni internatsionallashtirishning muhim yo'nallishlaridan biri bo'lib hisoblanadi. O'zbekistonda avtomobillarda tashishlarni rivojlantirish avtomobil magistrallari va yo'l infratuzilmasining sifat darajasini pasayishi, xalqaro tashishlarda qatnashuvchi mamlakatlar o'rtasida transport va bojxona tartib qoidalari sohasida huquqiy me'orlar bo'yicha kelishmovchiliklar hamda xalqaro avtomobil yo'llarini rivojlantirishdagi to'siqlarni bartaraf qilish bo'yicha yetarli darajada bo'lmagan muvofiqlashtirish harakatlariga yo'l qo'ymaydi.

Transport logistika xizmatlari bozorini samarali boshqarish muammolari muammolari qator mutaxassislar tomonidan, ayniqsa bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda tadqiq qilingan. Ammo bu sohadagi ayrim masalalar bahsli bo'lib o'z yechimlarini topishni taqozo etmoqda. Ushbu fikr mulohazalar mazkur dissertatsiya mavzusini tanlashga asos bo'ldi. Shuningdek "2022—2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" da transport sohasiga bog'liq bo'lgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, transport vositalarini manyovrchanligini oshirish avtomobillarni yo'llarda harakatlanishini yengillashtiradi va harakatlanishda qulayliklarni yaratadi. Tadqiqot obekti sifatida Shurtan gaz kimyo majmuasi MCHJ tanlab olindi. Tadqiqot predmeti transport logistika xizmatlari bozorini samarali boshqarish tizimini rivojlantirish hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadlari bo'lib transport logistika xizmatlari bozorini samarali boshqarish tizimini rivojlantirish uslubiini ishlab chiqish hisoblanadi.

Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. Transport logistika xizmatlari bozorini samarali boshqarish muammolari dunoning qator mamlakatlarida, ayniqsa bozor munosabatlari shakllangan mamlakatlarda tadqiq qilingan. G'arb mamlakatlarining ilmiy manbalarida J. Gelbrejt, V.Gerami, R.Keyns va boshqa xorij mutaxassislarining ishlari chop etilgan. Shular bilan bir qatorda MDH mamlakatlarining ishlarida ham o'z aksini topgan. Bularning qatorida L.B.Mirotin, V.A. Topalidi, K. M. Sidiknazarov, M.A. Ikramov, Sh.Bo'tayev, M.Jo'rayev va boshqalarning ishlarini ta'kidlash lozimdir.

Ammo boshqaruv qarorlarini qabul qilishda transport logistika xizmatlari bozorini samarali boshqarish hisobiga yuklarni tashishda avtomobil transporti faoliyatini optimallashtirishni qator masalalarini tadqiq qilish va ularni

yechimini topish hozirgi vaqtda ham dolzarbdir. Birinchi navbatda bu yuklarni tashishni boshqarishning transport-logistika tizimini kengaytirish, takomillashtirish va uni baholashning ilmiy uslubiy asoslarini yaratish hamda ichki va tashqi tashishlarda transport faoliyatini optimalashtirish, transport bozori faoliyatini baholash, logistik tizim sharoitlarida avtotransportda yuklarni tashishning optimal hajmini aniqlash, avtotransportda yuklarni tashish tizimida transport logistikasining iqtisodiy samaradorligini baholash uslubi va uslubièini ishlab chiqish masalalariga taalluqlidir.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Ilmiy tadqiqot davomida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarida oldinga surilgan g‘oyalar, Prezidentning farmonlari, qarorlari, xorijiy va mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining tadqiqotlari va me‘èriy hujjatlar xizmat qiladi. Muallif tomonidan olingan natijalar, ishlab chiqilgan nazariy qoidalar va ilmiy jihatdan asoslangan amaliy xulosa va takliflar Shurtan gaz kimyo kmpleksi MCHJ faoliyatida tadbìq etish uchun tavsiya etilishi nazarda tutiladi.

Ilmiy yangilik quyidagilar hisoblanadi.

-transport xizmatlari bozorini samarali boshqarish logistik yondashuvlarni tasniflash.

-transport logistika xizmatlarini maqsadli segmentlarini tanlashning uslublarini ishlab chiqish.

-yuklarni tashishda yangi axborot-boshqaruv tizimlarini yaratishning uslubièini ishlab chiqish.

-yuk tashishlarda avtomobil transportini boshqarishning transport logistik tizimini iqtisodiy baholash uslubièini ishlab chiqish.

-yuk tashishlarda avtomobil transportini boshqarishning transport logistik tizimini iqtisodiy baholash uslubièini ishlab chiqish.

Oxirgi yillarda yangi logistik yondashuv ya‘ni integrallashgan yondashuv shakllandi va keng qo‘llanilmoqda. Bu yondashuv aslida marketing usulini yanada takomillashtirilgan varianti bo‘lib, u hozirgi davrda biznesni rivojlantirishni yangi shart-sharoiti va omillaridan kelib chiqadi.

Integrallashgan logistikani qo‘llanishiga misol sifatida chet elda foydalanilaèt-gan JIT (just in time – aniq o‘z muddatida), TQM (Total Quality Management – sifatli kompleks boshqarish), jismoniy taqsimlashni integralashgan usuli kabi tizimlarni ko‘rsatish mumkin.

Integrallashtirish yondashuvi asosida ISCLS tizimi, ya‘ni logistik tizim, uning zvenolari, makro va mikro darajalarda xizmat ko‘rsatuvchi

tizim yaratildi. U material va axborot oqimlarini telekommunikatsiya tarmog'ini onlayn rejimi erdamida logistik tizim doirasida boshqarishga imkon beradi.

Hozirgi paytda xizmat ko'rsatish tushunchasi material obyektlarni eki tabiat mahsulotlarini shaklini o'zgartirish bilan bog'liq bo'lmagan barcha mehnat turlarini o'z ichiga oladi. Bunday mehnat natijasida alohida iste'mol qiymati yaratiladi va uni miqdori mehnatning ijtimoiy foydali faoliyati bilan o'lchanadi.

Oxirgi paytlarda transport xizmatini amalga oshirishda bajariladigan logistik boshqaruv masalalarining ahamiyati ortib bormoqda, ko'plab korxonalar va tashkilotlar xizmat ko'rsatish sohasiga kirib kelmoqdalar. Ko'plab logistik xizmat ko'rsatuvchi vositachi tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ayrim hollarda bunday vositachi tashkilotlar ko'rsatadigan xizmat narxi mahsulot ishlab chiqarish narxidan ham yuqori bo'lishi mumkin.

So'ngi yillarda logistika borgan sari ko'proq servis oqimlari bilan shug'ullanmoqda, chunki ko'pgina firma va korxonalar nafaqat mahsulot ishlab chiqaradi, balki kerakli xizmat ko'rsatish bilan ham shug'ullanmoqdalar.

Transport xizmati ko'rsatishda logistik yondashuv nihoyatda muhimdir. Transport xizmatiga bo'lgan ehtiyoj va bozordagi so'rov regionda transport tarmog'ini rivojlanganligiga, turli transport vositalarini mavjudligi va ularni faoliyat ko'rsatishini o'zaro muvofiqlashtirilganligiga, ko'rsatilaётgan transport xizmati turlari va sifatiga, ularni narx-navosi va boshqa ko'plab faktorlarga bog'liqdir. Bozor iqtisodiyatini rivojlanishi va keng infrastruktura tarmog'ini shakllanishi umumiy iqtisodiy tarmoqlar ichida albatta transport xizmatini ulushini oshishiga olib keladi.

Logistik tizimda ishlab chiqarish xom-ash'è ta'minlash kanallari faoliyatini ishga tushirish muammolarini hal etishni taqozo etadi. Korxonalar va tashkilotlar tayyor mahsulotni yetkazish kanallarini ish faoliyatida transport turini tanlash, tashish usularini ishlab chiqish, transport vositalari tiplarini aniqlash, yuklarni tashishga tayyorlash kabi qator transport masalalarini hal qilishi lozim bo'ladi. Shunday qilib iste'molchilarga transport xizmati ko'rsatish quyidagi ishlar bajarilishini taqozo etadi:

Transport xizmatiga bo'lgan talablarni o'rganish va tahlil etish shuni ko'rsatmoqdaki, iste'molchilarni transport xizmati sifatiga bo'lgan asosiy talabi – bu yuklarni o'z vaqtida jo'natish va yetkazib berishdir. Bunday

talabni asosida iste'molchilarni yuk zahiralari va ularni saqlab turishga ketadigan harajatlarni kamaytirish maqsadi etadi. Chunki hozirgi paytda zahiralarni ushlab turish harajatlari mahsulot narxidan 20-25 foizgacha bo'lgan harajatni talab etmoqda.

Transport tizimining amaldagi kamchiliklari – bu yukni o'z muddatida jo'natish va yetkazib berish kafolatlanmaganligi, tashishga berilgan buyurtmani bajarishni orqaga surish e'ki rad javobini berish hollarining mavjudligidir. Shu sababdan tashuvchilar avvalambor tashila'etgan yuk va tshiladigan masofa hamda tashish shart sharoitlarini hisobga olgan holda transport turini to'g'ri tanlashi maqsadga muvofiqdir.

Logistik xizmat ko'rsatish jarayonini eng muhim masalasi – bu ko'rsatilgan xizmatlar uchun iste'molchilardan undiriladigan kompensatsiya narxini aniqlashdir.

Yuklarni tashish jarayoniga ketgan harajatlarni aniqlashdan ko'ra logistik xizmat harajatlarini aniqlash ancha murakkabdir, chunki bunday xizmatni bahosi iste'molchi tomonidan bor tizimni (tashish va logistik xizmat ko'rsatish) samaradorligini baholashi va tan olish bilan bog'liqdir. Xizmat ko'rsatish darajasi harajat va tushumlar hamda olinadigan foyda qiymatlarini solishtirish asosida aniqlanadi.

Agar xizmat ko'rsatishni rejalashtirila'etgan darajasi harajat va tushumlarni optimal nisbatini ta'minlayolsa, unda bunday xizmat korxonaga uchun samarali hisoblanishi mumkin. Bunday protsedura xizmat ko'rsatish darajasini oshirilishi tufayli ko'paya'etgan harajatlarni xizmat turi va sifatini kamayishi natijasida yo'qotila'etgan tushum bilan solishtirish asosida bajariladi. Bunday solishtirish natijasida xizmat ko'rsatishning optimal darajasini aniqlanadi.

Transport vositalarini ish faoliyati iste'molchilar ehtiyojini qondirishga qaratilgan bo'lish kerak. Iste'molchilarga esa minimal muddatlarda yukni yetkazib berish imkoniyati, yukni sifatini 100 foiz saqlash, yukni qabul qilish va topshirishdagi qulayliklar, tariflar to'g'risida, tashish sharoiti va yukni yetib kelgan joyi to'g'risidagi doimiy ma'lumotlar berib turish lozim bo'ladi.

Transport xizmatini doimo yaxshilab borish uchun transport xizmati borasida olingan axborotlar to'plangan tajribalar va iste'molchilarni fikr-mulohazalari asosida jiddiy o'rganilishi va tahlil etilishi lozim. Transport xizmatini namunalni yo'lga qo'yish uchun strategik yechimlardan foydalanish ham katta samara beradi.

Ma'lumki, yuk tashish tannarxi transport jarayonini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan kapital mablag'larni hisobga olmaydi. Shu tufayli iqtisodiy hududda yuk tashishning istiqboldagi rivojlantirish variantlarini belgilashda, bu variantlarga xos ekspluatatsion xarajatlar va kapital mablag'lar darajalarini hisobga olish kerak bo'ladi. Bunday kompleks mezon sifatida keltirilgan xarajatlar hisoblanadi.

Real yuk tashish sharoitlarida yuqorida ko'rsatilgan xarajatlardan ayrimlari hisobga olinmasligi mumkin. Masalan, tashish jarayonida bo'ladigan yuklarning bahosini bu mahsulot yetkazilgandan keyin bevosita ishlab chiqarishda ishlatiladigan hollardagina hisobga olish lozim.

Shunday qilib, umumiy holda ma'lum region miqèsida iste'molchilarning yuk tashishga bo'lgan ehtiyojlarini vaqt mobaynida bir tekis taqsimlangan deb bo'lmaydi, ularni tahlil etish va transport jarayonini boshqarishda hisobga olish iqtisodiy jihatdan katta samaradorlik beradigan muhim omildir.

Yuk tashish xajmlarini ortib borish va turli transport vositalarining yo'l tarmoqlarini kengayishi va zichlashishi, shaxarlarni kattalashuvi va ulardagi material oqimlarni hududni mahsulot va tovarlar jo'natuvchi manzillari bilan iste'molchi tashkilotlarni obyektlarini o'zaro bog'laydigan eng qisqa uzunlikdagi kam xarajatli yo'l (tarmoq) sxemalarini aniqlash masalasini kun tartibiga qo'yimoqda. Chunki eng qisqa yo'l tarmog'i bo'yicha yetkazib beriladigan material oqim eng kam xarajatli hisoblanadi va uni samaradorligini oshirishda eng muhim omillardan hisoblanadi.

Hozirgi sharoitda transport korxonalarini o'zlarning tijorat va ishlab chiqarish faoliyatlarini qayta ko'rib chiqishlari va asosiy diqqat – e'tiborni iste'molchilarning ehtiyojlari va talablarini o'rganish, tahlil etish va qondirishga qaratmog'i lozim.



### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov A.A., & Kichkinayev, M.A. u. (2023). PRISADKA DLYA MOTORNIYE MASLA. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(3), 1021–1024. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/2512>.

2. Karimov A.A., & Zikriyoyev S.U. o'g'li. (2023). QARSHI SHAHRI KO'CHALARIDA HARAKAT XAVFSIZLIGINI ILMIIY ASOSDA TADQIQ QILISH. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(22), 190–199. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1832>

3. Karimov, A. (2023). PARAMETERS JUSTIFICATION OF THE IMPROVED POTATO DIGGER. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(18), 256–263. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1655>

4. Mamatov F. M., Karimov A. A. Potato digger with latticed plowshares and oscillating rods. *E3S Web of Conferences*, 2023. 401, P. 04029.

5. ***Study on the parameters of bars of the potato digger ploughshare***

Farmon Mamatov, Akmal Karimov and Golib Shodmonov, *E3S Web Conf.*, 434 (2023) 03012, DOI: <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202343403012>